

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-mart

### Xizmatlar sohasi

#### Raqamlar:

- 2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi - 2379 mlrd. so'm.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 137,9 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 830,5 ming so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xilma-xil bo'lib, bular savdo va transport xizmatlaridan tortib moliyaviy, sug'urta va turli xil vositachilik xizmatlaridan iborat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida chora-tadbirlarning davom ettirilishi xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda.

Natijada, Viloyatimizda 2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 2379,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,3 % ni tashkil etdi.


Bozor xizmatlarining eng katta hajmi savdo xizmatlari, transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, yashash va ovqatlanish xizmatlari, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar va ijara xizmatlarida kuzatilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish**  
(2018 yil yanvar-mart oylari uchun)

|  | <i>mlrd. so'm</i> | <i>2016 yil yanvar-dekabrga nisbatan % hisobida</i> | <i>yakunga nisbatan % hisobida</i> |
|--|-------------------|---|------------------------------------|
| <b>Jami xizmatlar</b>  | <b>2379,0</b>     | <b>106,3</b>  | <b>100,0</b>                       |
| <i>shu jumladan: xizmat turlari bo'yicha</i>   |                   |   |                                    |
| aloqa va axborotlashtirish xizmatlari  | 59,5              | 120,7   | 2,5                                |
| moliyaviy xizmatlar  | 248,0             | 137,9   | 10,4                               |
| transport xizmatlari   | 663,6             | 100,4   | 27,9                               |
| <i>shu jumladan: avtotransport xizmati</i>   |                   |   |                                    |
| yashash va ovqatlanish xizmatlari  | 118,5             | 106,5   | 5,0                                |
| savdo xizmatlari   | 779,5             | 100,2   | 32,8                               |
| ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar  | 87,2              | 103,5   | 3,7                                |
| ta'lim sohasidagi xizmatlar  | 51,3              | 107,0   | 2,2 / 2,1                          |
| sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar   | 33,1              | 105,2   | 1,4                                |
| ijara xizmatlari   | 75,5              | 100,4   | 3,2                                |
| kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar                       | 58,0              | 101,4   | 2,4                                |
| shaxsiy xizmatlar  | 69,7              | 101,0   | 2,9                                |
| me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 51,5              | 191,1   | 2,2                                |
| boshqa xizmatlar   | 83,6              | 130,5   | 3,5                                |

Hisobot davrida eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar bo'yicha – 137,9 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar bo'yicha – 191,1 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha – 120,7 %, boshqa xizmatlar bo'yicha – 130,5 % ga erishildi. Xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (27,9 %), savdo xizmatlari (32,8 %) tashkil etadi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi (2018 yil yanvar-mart oylari uchun)



## Hududlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmlarining o'sish sur'ati

(2017 yilning yanvar–martiga nisbatan)




## Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish

|                          | Jami             |   |   | Aholi jon boshiga |   |
|--------------------------|------------------|---|---|-------------------|---|
|                          | <i>mlrd.so'm</i> | <i>2017 yil yanvar-martga nisbatan % da</i> | <i>Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da</i> | <i>ming so'm</i>  | <i>2017 yil yanvar-martga nisbatan % da</i> |
| <b>Toshkent viloyati</b> | <b>2379,0</b>    | <b>106,3</b>                                | <b>100,0</b>  | <b>830,5</b>      | <b>105,1</b>                                |
| shaharlar:               |                  |   |   |                   |   |
| Olmaliq                  | 156,8            | 105,7                                       | 6,6   | 1228,7            | 104,6                                       |
| Angren                   | 123,8            | 108,4                                       | 5,2   | 673,7             | 107,0                                       |
| Bekobod                  | 98,6             | 96,4  | 4,1   | 1057,6            | 95,2  |
| Chirchiq                 | 165,5            | 104,9                                       | 7,0   | 1069,8            | 104,3                                       |
| Ohangaron                | 33,1             | 100,1                                       | 1,4   | 907,3             | 99,6  |
| Yangiyo'l                | 101,6            | 104,9                                       | 4,3   | 1710,1            | 104,4                                       |
| Nurafshon                | 380,7            | 130,7                                       | 16,0  | 7965,2            | 129,4                                       |
| tumanlar:                |                  |   |   |                   |   |
| Oqqo'rg'on               | 62,8             | 100,8                                       | 2,6   | 615,3             | 99,6  |
| Ohangaron                | 42,9             | 94,7  | 1,8   | 460,9             | 93,6  |
| Bekobod                  | 56,2             | 100,6                                       | 2,4   | 367,8             | 99,4  |
| Bo'stonliq               | 110,6            | 101,0                                       | 4,6   | 667,5             | 100,3                                       |
| Bo'ka                    | 46,9             | 99,1  | 2,0   | 385,2             | 97,9  |
| Zangiota                 | 183,9            | 102,0                                       | 7,7   | 952,4             | 101,3                                       |
| Qibray                   | 201,1            | 111,6                                       | 8,5   | 1029,3            | 110,3                                       |
| Quyichirchiq             | 36,5             | 100,1                                       | 1,5   | 347,1             | 99,1  |
| Parkent                  | 85,6             | 98,6  | 3,6   | 572,2             | 97,1  |
| Piskent                  | 31,4             | 98,4  | 1,3   | 319,9             | 97,3  |
| Toshkent                 | 126,2            | 98,5  | 5,3   | 719,3             | 97,7  |
| O'rtachirchiq            | 86,3             | 104,0                                       | 3,6   | 596,6             | 102,3                                       |
| Chinoz                   | 69,2             | 98,9  | 2,9   | 532,7             | 97,6  |
| Yuqorichirchiq           | 73,2             | 103,0                                       | 3,1   | 557,4             | 101,5                                       |

|           | Jami      |                                      |  | Aholi jon boshiga |                                      |
|-----------|-----------|--------------------------------------|--|-------------------|--------------------------------------|
|           | mlrd.so'm | 2017 yil yanvar-martga nisbatan % da | Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da | ming so'm         | 2017 yil yanvar-martga nisbatan % da |
| YAngiyo'l | 106,1     | 100,6                                | 4,5  | 521,3             | 99,1                                 |

Hududlar o'rtasida eng yuqori o'sish sur'atlari Nurafshon (130,7%), Qibray (111,6%), O'rtachirchiq (104,0%) tumanlariga to'g'ri keladi.



Joriy yilda viloyatda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi Nurafshon shahrida 29,4 %, Qibray tumanida 10,3 %, Angren shahrida 7 % ga oshgan bo'lsa, quyidagilarda jumladan, Bekobod shahrida 4,8 %, tumanlardan Ohangaronda 6,4 %, Piskentda 2,7 %, Chinozda 2,4% va Bo'kada 2,1 % ga kamaygan.

**Viloyat statistika boshqarmasi**  
**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**  
**Mas'ul: M.Tastanbekov**  
**Tel:230-86-74**